Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



# “IJTIMOIY HIMoya YAGONA REYESTRI” AXBOROT TIZIMINING AHOLINI IJTIMOIY HIMoya QILISHDAGI O’RNI

**Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishda kam ta'minlangan oilalar uchun nafaqalarni manzilli va maqsadli to'lanishini ta'minlashda ijtimoiy himoya tizimida axborot-kommunikatsiyalaridan foydalanish, ushbu yo'nالishda xorijiy mamlakatlar tajribalari va ularning yutuqlarini O'zbekistonda joriy etish, tizimda uchrayotgan muammo va kamchiliklar hamda ularni hal etish bo'yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy himoya, nafaqa, "ijtimoiy himoya yagona reyestri", kambag'allik, kambag'allik chegarasi, ijtimoiy yordam.

**Abstract:** In this article, the use of information and communications in the social protection system to ensure targeted and targeted payment of allowances for low-income families in the social protection of the population in Uzbekistan, the introduction of the experiences of foreign countries and their achievements in Uzbekistan in this direction, the problems and shortcomings encountered in the system, and suggestions and recommendations for their solution stated.

**Key words:** social protection, benefit, "single registry of social protection", poverty, poverty line, social assistance.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается использование информации и коммуникаций в системе социальной защиты населения для обеспечения адресной и адресной выплаты пособий малообеспеченным семьям при социальной защите населения в Узбекистане, внедрение опыта зарубежных стран и их достижений в области социальной защиты населения. Узбекистана в этом направлении изложены проблемы и недостатки, возникшие в системе, а также предложения и рекомендации по их решению.

**Ключевые слова:** социальная защита, пособие, "единый регистр социальной защиты", бедность, черта бедности, социальная помощь.

## KIRISH

Har bir mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanganlik holati va islohotlari aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy himoya siyosati bilan bog'liq holda tavsiflanadi.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida bo'lishining belgilanganligi mazkur sohani yagona yondashuv asosida isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda.

Ma'lumki, jamiyatda ijtimoiy ximoyaga muhtoj bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga doimiy e'tibor berish insoniyatning paydo bo'lishidan beri mavjuddir. Iqtisodiyot rivojlanib borar ekan, obyektiv sabab-larga ko'ra ya'ni iqtisodiy va ishlab chiqarish omillar sabab (kasb kasalligiga chalinish, baxtsiz xodisalar sabab nogironlik, ishsizlik, kambag'allik) insonlarning vaqtinchcha yoki doimiy mehnat qobiliyatini yo'qotishi, daramaddan mahrum bo'lismosh va bu orqali hayot darajasining pasayishiga bo'lgan xavf ortib boradi. Bunda aholini ijtimoiy ximoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy himoya – o'ziga bog'liq bo'limgan ravishda ijtimoiy muhofazaga muhtoj fuqarolarga nisbatan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam shakli bo'lib, kam ta'minlangan aholi qatlamlariga ko'rsatiladigan xizmatlar, nafaqalar va imtiyozlarni ko'zda tutadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoya das-turlari qamrovini kengaytirish va oilalarni og'ir hayotiy holatlardan olib chiqishga qaratilgan qo'shimcha mex-anizmlarni joriy etish, aholining barcha ijtimoiy guruuhlarida tengsizlikni kamaytirish hamda ehtiyojmand oilalarni to'liq qo'llab-quvvatlash yo'nالishlarida islohotlarni amalga oshirish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Bu



borada zamonaviy tizimlardan foydalanish, ijtimoiy yordam va xizmatlarni ko'rsatishda inson omilini kamaytirish, shaffoflik va manzillilikni oshirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish davr talabi ekanligini vaqtning o'zi ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishda kam ta'minlangan oilalar uchun nafaqalarni haqiqiy muh-tojlarga cheklanmagan miqdorda to'lash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tartibini soddalashtirish va shaffofligini ta'minlash, shuningdek, davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish maqsadida YuNISEFning texnik ko'magida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (VMQ-308, 2019) bilan 2019-yil 1-oktyabrdan Sirdaryo viloyatida sinov tarzida "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi ishga tushirildi. 2020-yil 1-sentyabrdan boshlab esa ushuu tizim butun respublika hududiga bosqichma bosqich joriy etildi. Tizim idoralararo elektron o'zaro hamkorlikni qo'llagan holda aholiga davlat tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va yordam berish bilan bog'liq tartib-taomillarni avtomatlashtirish hamda ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordamni olish uchun murojaat qiluvchilar va oluvchilar to'g'risida yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga sifatlari ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni (PF-82, 2023) qabul qilindi. Ushbu hujjat bilan fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish sifatini tubdan oshirish hamda mazkur sohaga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv tizimini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning hududiy boshqarma hamda bo'limlari tashkil etildi hamda 2024-yil 1-yanvardan boshlab kam taminlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordamlar bo'yicha arizalar "Yagona milliy ijtimoiy himoya" AT orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi orqali amalga oshirilishi belgilandi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi – idoralararo elektron o'zaro hamkorlikni qo'llagan holda kam ta'minlangan oilalarni aniqlash, ularga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash hamda davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordamni olish uchun murojaat qiluvchilar va oluvchilar to'g'risida yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish amalga oshiriladigan avtomatlashtirilgan axborot tizimidir (VMQ-596, 2023).

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sabablarga ko'ra ishdan yoki doimiy daromad manbayidan mahrum bo'lishi natijasida moliyaviy ahvolining yomonlashishi, shuningdek, yordama muhtoj bo'lgan oila a'zolarining tibbiy-ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda qo'shimcha xarajatlarga bog'liqligi ijtimoiy xavf yoki ijtimoiy risk deb ataladi (Borisenko, 2007).

Insonlarni ijtimoiy havf-xatarlardan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyini ijtimoiy himoya tizimi deyish mumkin. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi o'zining rivojlanish tarixiga ega. Ilk bor aholini ijtimoiy himoya qilish diniy tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi bilan ijtimoiy himoya tizimida davlatning roli oshib bordi (Tursunov, Jumabayeva, 2023).

"Ijtimoiy himoya" (ijtimoiy ta'minot) atamasi birinchi marta 1935-yilda AQShning "Ijtimoiy himoya to'g'risida"gi Qonunida ishlatalgan. Ushbu qonunga ko'ra majburiy sug'urta qilish orqali o'limdan, keksalikda, nogiron bo'lganda va ishsizlikdan himoya qilish tartibi belgilangan. Keyinchalik bu atama boshqa mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlar amaliyotida keng qo'llanila boshlandi (Sholdarov, Tursunov, 2018).

Zamonaviy sharoitda ijtimoiy himoya – bu qonun bilan mustahkamlangan ko'p bosqichli iqtisodiy, ijtimoiy hamda huquqiy tizimdir, shuningdek, aholini ijtimoiy risklardan himoya qilishga mo'ljallangan institutdir (Tursunov, 2023).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-oktyabrdagi "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 654-sun qarori bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga nafaqa va moddiy yordam tayinlash hamda to'lash tartibi aniq belgilandi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqot, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash kabi usullaridan foydalanilgan.


## ASOSIY QISM

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini elektron axborot tizimlari orqali qo'llab-quvvatlash, yagona bazada qamrab olish tadbirlari dunyoning 30 dan ortiq mamlakatlari, jumladan Argentina, Braziliya, Rossiya, Armaniston, Ozarbayjon, Turkiya, Malayziya, Indoneziya, Pokiston kabi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda turli xil ko'rinish va mexanizmlar orqali amalga oshirilmoqda. Ularning aksar dasturlarida birinchi navbatda ehtiyojmand aholiga manzilli yordam ko'rsatish, yagona bazani shakllantirish hamda yordam va xizmatlar tez-



korligini oshirishga e'tibor qaratilgan. Aksar mamlakatlarda aholining ehtiyojmand qatlamini to'liq qamrab olish, ijtimoiy xizmatlarni manzilli ko'rsatish maqsadida yagona axborot tizimlari tashkil etilgan. Dasturlar asosan rivojlanayotgan hamda ehtiyojmand aholi soni va ulushi sezilarli bo'lgan mamlakatlarda mavjud bo'lib, hukumatlar deyarli bir xil yo'nalishda, ammo har xil shakllar orqali ijtimoiy siyosat olib borishadi. Shu o'rinda ba'zi mamlakatlarda ijtimoiy himoya yagona tizimlarini bat afsil ko'rib chiqsak. Misol uchun, Turkiyada ijtimoiy yordam sohasida integratsiyalashgan axborot tizimi (ISAS) mavjud bo'lib, ushu elektron axborot tizimi mamlakatda ijtimoiy yordam dasturlarini elektron tarzda boshqarish, jumladan ro'yxatdan o'tish, muvofiqlikni aniqlash, mablag'larni to'lash, monitoring va baholash hamda fuqarolar bilan muloqotni osonlashtiradi. Tizim ijtimoiy himoya mexanizmlaridan foydalanuvchilar integratsiyalashgan reyestri funksiyasini ham bajaradi. Elektron tizim Turkiya oila va ijtimoiy siyosat vazirligi tomonidan boshqariladi. U 2011-yilda ijtimoiy himoya sohasidagi yagona muvofiqlashtiruvchi mexanizm sifatida tashkil etilgan hamda 1000 ta mahalliy ijtimoiy yordam va qo'llab-quvvatlash jamg'armalari orqali o'z faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. Ehtiyojmandlar arizalarini qabul qilish va ko'rib chiqish, nafaqalar to'lash hamda monitoring yuritish bevosita ISAS tizimida shakllantirilgan. Tashkil etilganidan beri ISAS tizimi Turkiyada ijtimoiy himoya siyosatida yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Chunki unda barcha ijtimoiy yordam dasturlari qamrab olingen bo'lib, tizimga o'ttacha kunlik murojaatlari soni 10 000 tani tashkil qiladi. Ayniqsa, bir necha yillar avval Suriya va Iraqda ro'y bergen siyosiy inqirozlar paytida ISAS orqali siyosiy qochoqlar uchun insoniyat tarixidagi eng yirik insonparvarlik yordamlari yetkazib berildi.

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri" ATni joriy etishdan ko'plab maqsadlar ko'zlangan edi.



1-rasm: "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" ATni joriy etishning asosiy maqsadları

Bundan tashqari, tizimning tashkil etilishi ijtimoiy yordam va xizmatlar ko'rsatish tezligi hamda sarf-xarajatlar miqdorini keskin qisqartirdi. O'z vaqtida ijtimoiy yordam uchun ariza topshirishdan to uni to'lab berishgacha bo'lgan davr o'ttacha 1,5 yil bo'lgan bo'lsa, hozirda bu muddat 1 oygacha bo'lgan vaqtini tashkil etmoqda. Tizim orqali bir oyda 2-3 mln hujjatlar tekshirib chiqilmoqda. Qo'shimcha ravishda mamlakatda uy xo'jaliklari va ularning ijtimoiy yordamlardan foydalanishi nisbatan shaffof, tezkor hamda tartibga solingan holda boshqarilmoqda.

Bugungi kunda "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" AT orqali aholiga ijtimoiy yordamning asosan ikki turi – bolalar nafaqasi hamda moddiy yordam tayinlanadi. Uzoq vaqt davomida ushu nafaqalarni tayinlash hamda to'lash tizimi rasmiyatçilik, sansalorlik va byurokratik to'siqlar asosida amalga oshirilib kelingan. Natijada ahol-



ining ehtiyojmand qatlamini qamrab olish darajasi past bo'lgan. Chunki yordamga muhtoj bo'lgan oilalarni turli xil ma'lumotnoma va boshqa tasdiqlovchi hujjalarni yig'ish hamda murojjat qilishda ma'lum to'siqlar, mahalliy darajada mutasaddilarning noto'g'ri xatti-harakati aholiga turli qiyinchiliklarni keltirib chiqargan.

**1-jadval:** O'zbekiston Respublikasida kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar tayinlanishi bo'yicha ma'lumotlar

№	Hududlar	2016		2022		2022-yilda 2016-yilga nisbatan o'sishi, baravar	
		Oilalar soni	Xarajat, mln.so'm	Oilalar soni	Xarajat, mln. so'm	Oilalar soni	Xarajat
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	40 265	85 925,8	151 760	784 602,2	3,8	9,1
2	Xorazm viloyati	25 804	70 021,7	115 357	621 520,6	4,5	8,9
3	Surxondaryo viloyati	36 374	110 845,8	220 900	1 236 690,5	6,1	11,2
4	Navoiy viloyati	12 268	30 630,9	47 988	246 403,2	3,9	8,0
5	Buxoro viloyati	19 365	56 515,2	91 338	477 680,3	4,7	8,5
6	Qashqadaryo viloyati	69 544	150 837,8	285 841	1 449 454,2	4,1	9,6
7	Samarqand viloyati	64 323	153 316,7	248 359	1 388 657,3	3,9	9,1
8	Jizzax viloyati	25 632	59 410,9	106 973	593 402,6	4,2	10,0
9	Sirdaryo viloyati	12 121	33 459,3	56 867	305 851,1	4,7	9,1
10	Toshkent viloyati	12 133	45 849,2	95 677	531 373,0	7,9	11,6
11	Namangan viloyati	51 440	109 301,3	242 797	1 267 316,3	4,7	11,6
12	Farg'ona viloyati	36 518	99 846,0	218 015	1 191 694,0	6,0	11,9
13	Andijon viloyati	50 132	105 623,1	213 719	1 165 288,3	4,3	11,0
14	Toshkent shahri	1 096	2 566,4	33 093	181 840,3	30,2	70,9
<b>Respublika bo'yicha jami</b>		<b>466 515</b>	<b>1 112 050,1</b>	<b>2 133 184</b>	<b>11 442 373,9</b>	<b>4,5</b>	<b>10,3</b>

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri" AT ishga tushirilganidan so'ng aholiga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam tayinlash hamda to'lab berish qamrovi va tezkorligi keskin oshganini kuzatish mumkin. Chunki, tizim 20 ga yaqin vazirlik va idoralarning ma'lumotlar bazalari bilan elektron integratsiyalashuv orqali 70 dan ortiq turdag'i ma'lumotlarni to'plash, tekshirish hamda tahlil qilishni ta'minlashga sharoit yaratadi. Natijada 2016-yilda mamlakatda ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam oluvchi oilalar soni 466,0 mingdan ortiqni, nafaqalarga ajratilgan mablag'lar 1,1 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil yakuniga kelib ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 2,1 mln oila va 11,4 trln so'mni tashkil etdi.

Taqqoslanayotgan davrda eng yuqori o'sish Toshkent shahrida qayd etilgan bo'lib (oilalar soni 30 barobarga, ajratilgan mablag'lar 70 barobarga ko'p), buning asosiy sababi sifatida aholining o'tgan davrda nisbatan kambag'allashuvi hisoblanmaydi, aksincha ijtimoiy himoya bilan qamrab olinish 2016-yillarda nisbatan past bo'lganligi bilan izohlanadi. Taqqoslash uchun, 2016-yil davomida poytaxtdagi salkam 1 100 oilaga ijtimoiy nafaqa tayinlangan bo'lsa, Toshkent viloyatida 12 mingdan ortiq, Surxondaryo viloyatida 36 mingdan oshiq oilalar nafaqa olishgan. Vaholanki, ushbu uchta hudud jami aholisi soni deyarli teng bo'lgan. Bunday holat bo'lishining yana bir jihatni aholi daromadlari va hisoblangan o'rtacha ish haqi miqdorlarining turlichalik ekanligi hamda ularning rivojlanganlik darajasidir.

Shu o'rinda, hududlarda istiqomat qiluvchi aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini ko'rsatuvchi 4 ta indikator tahlil qilinganda qator paradoks holatlari ko'zga tashlanadi. Ushbu indikatorlar sifatida hududlarda aholi jon boshiga umumiylar, hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi, kambag'allik darajasi hamda jami oilalar tarkibida ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam oluvchi oilalar ulushi ajratib olindi.



**2-jadval:** 2022-yilda hududlarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati bo'yicha taqqoslama ma'lumotlar

Nº	Hududlar	Jami oilalar soniga nisbatan nafaqa oluvchi oilalar ulushi (foiz)	Jon boshiga o'rtacha daromadlar (ming so'm)	Hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi (ming so'm)	Kambag'allik darajasi (foiz)
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	34,2	13 253,4	3 246,2	19,7
2	Xorazm viloyati	22,3	19 643,5	3 182,4	19,1
3	Surxondaryo viloyati	34,5	14 597,2	2 946,1	13,7
4	Navoiy viloyati	18,3	27 420,4	5 125,3	9,2
5	Buxoro viloyati	17,5	21 382,0	3 310,0	11,9
6	Qashqadaryo viloyati	32,9	14 678,9	2 952,6	12,7
7	Samarqand viloyati	26,0	15 534,2	2 944,2	14,0
8	Jizzax viloyati	33,5	15 221,2	2 946,4	16,1
9	Sirdaryo viloyati	25,9	15 124,1	3 221,6	19,5
10	Toshkent viloyati	11,9	18 129,4	3 946,9	14,4
11	Namangan viloyati	32,1	13 880,7	2 924,3	12,8
12	Farg'ona viloyati	21,3	13 607,9	2 900,5	11,6
13	Andijon viloyati	25,8	15 727,3	3 381,3	17,4
14	Toshkent shahri	3,9	37 518,0	6 314,4	8,5
<b>Respublika bo'yicha jami:</b>		<b>23,6</b>	<b>17 807,3</b>	<b>3 892,4</b>	<b>14,1</b>

2-jadvaldan ko'rinish turibdiki, o'rtacha oylik ish haqi, o'rtacha daromadlar miqdori nisbatan yuqori bo'lgan hududlar, jumladan Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlarida jami aholi tarkibida kam ta'minlangan oilalar ulushi past, aksincha holatlarda esa yuqori bo'lmoqda. Umuman olganda, joriy yil boshida O'zbekistonda aholi ning saltak 24 foizi "ijtimoiy himoya yagona reyestri"da ro'yxatga olingan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi (34,2%), Surxondaryo viloyati (34,5%), Jizzax viloyati (33,5%), Qashqadaryo viloyati (32,9%), Namangan viloyati (32,1%)da aholining sezilarli qismi kam ta'minlangan oilalarda istiqomat qilishi aniqlangan.

Ushbu ko'rsatkich odatda qishloq joylarda yuqori, shaharlarda ancha past bo'lishi tabiiy hol. Ammo Namangan shahrida istiqomat qiluvchi oilalarning 51 foizi kam ta'minlangan ekanligi yuqoridagi ta'kidlangan paradoks holatlarga misol bo'la oladi. Taqqoslash uchun, o'tgan yil yakunida Farg'ona shahrida istiqomat qiluvchilarning 9,1 foizi kam ta'minlangan sifatida nafaqalar olgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich Andijon shahrida 16,4 foiz, Samarqand shahrida 11,3 foiz, Navoiy shahrida 5,2 foizni tashkil etgan.

Shu o'rinda, kam ta'minlangan oilalarga bir oyda ajratiladigan nafaqalarning o'rtacha qiymati tahlil qiliniganda, 2022-yil yakunida 2020-yilga nisbatan taqqoslaganda umumiyl miqdorlarda ham, AQSh dollariga o'girganda ham sezilarli o'sish bo'lganini qayd etish lozim. Ya'ni 2020-yilda respublika bo'yicha kam ta'minlangan bir nafar oila bir oyda saltak 365,0 ming so'm (35,0 AQSh dollari) miqdorida ijtimoiy nafaqa olgan bo'lsa, 2022-yil yakuniga kelib ushbu raqamlar mos ravishda 451,1 ming so'm (40,2 AQSh dollari)ni tashkil etgan.

Taqqoslanayotgan davrda hududlarda bundan ham keskin o'zgarishlar bo'lganini ko'rish mumkin. Misol uchun, 2020-yil yakunida Qashqadaryo viloyatida bir oyda bir oilaga 545,5 ming so'm (52,3\$) ijtimoiy nafaqa to'lab berilgan bo'lsa, 2022-yil yakunida bu raqam 446,1 ming so'mgacha (yoki 39,7\$) pasayganini ko'rish mumkin. Vaholanki ushbu davrda Toshkent shahrida ijtimoiy nafaqaning 77,5 ming so'mdan saltak 458 ming so'mgacha (7,4 dan 40,8 dollargacha) oshganining guvohi bo'lmoqdamiz.

Qashqadaryo viloyatida "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" AT orqali 2020-2023-yil davomida kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam oluvchilar sonini to'liqroq ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2020-yil noyabr-dekabr oylaridan to'lash jarayonlari boshlanganligi hisobiga jami 128 271 ta oilaga 104,1 mlrd. so'mlik nafaqalar to'lab berilgan bo'lsa, 2022-yil yakunida 285 841 ta oilaga 1 449,5 mlrd.so'mlik nafaqalar moliyalashtirilgan. 2023-yilning 9 oyligida 273 924 ta oilaga 1 trln dan ortiq nafaqalar to'lab berilgan.



**3-jadval:** Qashqadaryo viloyat bo'yicha 2020-2023-yil davomida kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam oluvchilar soni to'g'risida ma'lumot

№	Hududlar	2020-yil noyabr-dekabr		2021-yil		O'tgan yilga nisbatan o'sishi		2022-yil		O'tgan yilga nisbatan o'sishi		2023-yil yanvar-sentyabr	
		Oilalar soni	Xarajat, mlrd.so'm	Oilalar soni	Xarajat, mlrd.so'm	Oilalar soni	%	Oilalar soni	Xarajat, mlrd.so'm	Oilalar soni	%	Oilalar soni	Xarajat, mlrd.so'm
1	Qarshi sh.	5 991	4,9	8 417	35,7	2 426	29%	13 836	66,4	5 419	39%	13 406	56,0
2	Shahrisabz sh.	4 676	3,7	5 494	24,6	818	15%	9 731	47,4	4 237	44%	9 186	37,8
3	G'uzor	7 231	5,8	11 068	42,5	3 837	35%	18 418	93,8	7 350	40%	16 887	70,9
4	Dehqonobod	7 041	6,0	9 889	34,7	2 848	29%	15 003	77,0	5 114	34%	13 295	59,1
5	Qamashi	12 452	10,1	16 372	64,8	3 920	24%	28 413	149,1	12 041	42%	29 147	117,4
6	Qarshi	7 649	5,9	13 827	50,2	6 178	45%	23 430	112,1	9 603	41%	21 279	86,1
7	Koson	10 166	8,4	11 880	50,9	1 714	14%	23 163	111,5	11 283	49%	20 731	88,7
8	Kasbi	7 996	6,4	11 947	47,8	3 951	33%	18 555	94,2	6 608	36%	17 809	71,2
9	Kitob	5 081	4,3	10 670	37,4	5 589	52%	22 147	109,3	11 477	52%	21 965	92,3
10	Mirishkor	4 070	3,4	5 536	23,4	1 466	26%	10 590	50,4	5 054	48%	9 797	39,3
11	Muborak	1 688	1,4	3 582	13,6	1 894	53%	5 738	28,3	2 156	38%	5 259	22,4
12	Nishon	5 115	4,1	7 009	27,8	1 894	27%	11 552	59,4	4 543	39%	11 464	46,4
13	Chiroqchi	24 585	20,2	24 662	100,2	77	0%	25 762	182,3	1 100	4%	24 875	111,0
14	Ko'kdala	-	-	0	-	0	0%	17 191	50,9	0	0%	16 715	77,5
15	Shahrisabz	11 653	9,2	12 551	56,7	898	7%	19 921	103,0	7 370	37%	19 975	80,5
16	Yakkabog'	12 877	10,0	13 679	61,3	802	6%	22 391	114,4	8 712	39%	22 134	91,4
Qashqadaryo viloyati bo'yicha jami		128 271	104,1	166 583	671,8	38 312	23	285 841	1 449,5	119 258	42	273 924	1 148

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

## XULOSA

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri" ATning o'tgan 3 yil davomidagi faoliyati natijasida afzalligi bilan bir qatorda qator kamchiliklar ham kelib chiqmoqda. Jumladan, so'ngi yillarda bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlanishida bir qancha holatlarda o'ziga to'q oilalar ushbu turdag'i nafaqalarni olish holatlari kuzatilgan. Xususan, ayrim o'ziga to'q fuqarolar o'z mulklarini qarindoshlari nomiga rasmiylashtirib, bolalar nafaqasi va moddiy yordam olib kelgan.

Shu va boshqa turdag'i holatlarni oldining olish, bolalar nafaqasi va moddiy yordamni chindan ham unga muhetoj oilalarga yetib borishni ta'minlash maqsadida joriy yilning 10-noyabr kuni Vazirlar Mahkamasining yangi Qarori (VMQ-596, 2023) e'lon qilindi. Qarorga muvofiq:

- 2024-yil 1-apreldan boshlab kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash uchun onlayn ariza berish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish yo'lg'a qo'yish belgilandi;
- 2024-yil martdan boshlab oilaning nomiga rasmiylashtirilmagan, lekin foydalanuvida bo'lgan avtotransport vositalari, ko'chmas mulklari, chorva mollari fuqarolarning arizalariga muvofiqligi joyiga chiqqan holda o'rganilish tartibi joriy qilinadi. Bu orqali bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlanishida adolat mezonlari mustahkamlanadi;
- oilalar tomonidan kuchmas mulk yoki boshka kimmabaho mulklar xarid kilinganida avtomatik tarzda har oyda ularning moddiy ahvoli o'rganiladi hamda kam ta'minlangan oila deb e'tirof etilmaganida bunday oila reyezrdan chiqarish amaliyoti belgilanmoqda;



- oilaning kam ta'minlanganligi sababli "temir daftar" ro'yxatida bir yil majburiy bo'lish sharti nizomdan chiqarib tashlanmoqda;
- rasman nikohi bekor qilinmagan aliment to'layotgan er (xotin) oila tarkibiga kiritilmasligi belgilandi;

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri" AT nafaqat ijtimoiy xizmatlar va yordamning manzilliligini oshirish imkoniyati, balki har qanday murakkab sharoitda ham aholining ehtiyojmand qismini qisqa muddatlarda aniqlash va ularni davlat tomonidan manzilli qo'llab-quvvatlashning shaffof va samarali vositasiga aylanib boryapti.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi. 30.04.2023. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-apreldagi "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini idoralaro elektron o'zaro hamkorlikni qo'llagan holda takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 308-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-82-son Farmoni.
4. Борисенко Н.Ю. Построение национальной системы пенсионного обеспечения: теория и практика // Финансы и кредит. 2007. № 17. С. 54–65.
5. Tursunov J.P., Jumabayeva K.B. O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimi: bugungi holat va rivojlanish istiqbollari. // Fundamental tadqiqotlar. No 1 (2023) B. 25-33
6. Sholdarov D., Tursunov J. Improvement of the system of state pension provision in Uzbekistan //Scientific journal "Finance", 1st issue. – 2018. – T. 107.
7. Tursunov, J. (2023). O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini istiqbolda barqaror amalga oshirilishini ta'minlash yo'llari. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(1), 327–333. [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss1/a50](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a50)
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-oktyabrdagi "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 654-son qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagagi "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-175-son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 10-noyabrdagi "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan ojalarni aniqlash va ularga ijtimoiy nafaqlar tayinlash bo'yicha elektron shaklda ariza berishni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 596-son Qarori.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 11-12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

